

**ISHTIG‘OL VA TANOZU’: ARAB TILI SINTAKSISINING MURAKKAB
GRAMMATIK HODISALARI**

Azizbek Isamutdinov

Oriental universiteti Sharq tillari kafedrası

katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tilida ishtig‘ol va tanazuu (tanazu‘) grammatik hodisalari batafsil tahlil qilinadi. Ishtig‘ol – to‘ldiruvchining o‘zini talab qilgan fe‘ldan oldinga o‘tib, gapda qaytuvchi olmosh bilan birga kelishi hodisasi sifatida tushuntiriladi. Maqolada ishtig‘olning turli sintaktik holatlarda qo‘llanilishi, qoida va misollar bilan bayon etiladi. Shuningdek, tanazuu – gapda bir nechta omilning bir xil to‘ldiruvchiga ta‘sir etishi holati, uning arab tilidagi ifodalanishi va arab tilshunoslik maktablari (Basra va Kufalik) o‘rtasidagi fikriy tafovutlar ko‘rib chiqiladi. Maqola ishtig‘ol va tanazuu fenomenlarining arab tilining sintaksisidagi o‘rni, ular bo‘yicha mashhur tilshunoslarning qarashlari va ilmiy mulohazalarini o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: ishtig‘ol, tanazuu, arab tili, sintaksis, qaytuvchi olmosh, tilshunoslik, grammatik hodisa.

Arab tilining sintaksik qoidalari nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik va ilohiyat sohalarida ham muhim ahamiyatga ega. Ular orasida ishtig‘ol (الإشتغال) va tanozu’ (التنازع) kabi murakkab grammatik hodisalar tilning strukturasini va ma‘no shakllanishini aniqlashda muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqolada arab tilidagi ishtig‘ol va tanozu’ tushunchalari, ularning turli sintaksik sharoitlardagi namoyon bo‘lishi hamda arab tilshunosligi maktablari o‘rtasidagi fikriy qarama-qarshiliklar tahlil qilinadi.

Ishtig‘ol – to‘ldiruvchining (mo‘ringning) o‘zini talab qilgan fe‘ldan oldinga o‘tishi va shu paytda gapda qaytuvchi olmoshning qo‘shilishi jarayonidir. Masalan, «خالدٌ أكرمته» – “Xolidni hurmat qildim” (so‘zma-so‘z: “Xolid uni hurmat qildim”). Bunday holatlarda oldinga o‘tgan ism ko‘pincha bosh kelishikda keladi, lekin tushum kelishigida keltirilishi ham mumkin.

Ishtig'olning turli sintaksik sharoitlardagi qoidalarini aniqlanadi:

Ismdan keyin buyruq fe'llari, inkor fe'llari va duo mazmunidagi jumlar kelganda ism tushum kelishigida keltiriladi.

Agar ism «مبتدو» (grammatik ega) bo'lsa va ayrim boshlang'ich yuklamalardan keyin kelsa, u bosh kelishikda keltiriladi.

Ushbu qoidalar arab tilining sintaksik jihatdan murakkabligini va undagi so'zlar o'rtasidagi munosabatlarning aniqligini ko'rsatadi.

Tanozu' va uning mazmuni. Tanozu' arab tilida bir yoki bir nechta fe'lning bir yoki bir nechta to'ldiruvchiga bir vaqtning o'zida ma'nodagi to'qnashuvini ifoda etadi. Masalan, Qahf surasi, 96-oyatdagi «آتوني أفرغ عليه قطراً» misoli shuni ko'rsatadi, bu yerda «قطراً» ikki fe'l tomonidan talab qilinadi. Tanozu'ning turli maktablardagi tushuntirishlari shundan iboratki, Basraliklar birinchi omilga, Ko'faliklar esa ikkinchi omilga ustuvorlik beradi.

Ishtig'ol – to'ldiruvchining o'zini talab qilib kelayotgan fe'lidan oldinga o'tganida fe'lga o'sha to'ldiruvchiga qaytuvchi olmoshning qo'shilishidir. Masalan, خالدٌ أكرمته – Xolidni hurmat qildim. (so'zma-so'z: Xolid uni hurmat qildim.) Bunday holatda oldinga o'tgan ismni gapning boshida kelayotganligi uchun bosh kelishikda keltirish afzal, lekin uni to'ldiruvchi bo'lganligi uchun tushum kelishigida ham keltirish mumkin. Masalan, خالداً رأيته – Xolidni ko'rdim. (so'zma-so'z: Xolidni uni ko'rdim.) O'z fe'lidan oldinga o'tgan ismni quyidagi besh o'rinda tushum kelishigida keltirish shart bo'ladi: 1) ismdan so'ng buyruq maylidagi fe'l kelsa, masalan, خالداً أكرمه – Xolidni hurmat qil; 2) ismdan so'ng buyruq inkor fe'li kelsa, masalan, الكريم لا تهنه – Saxiyni xor qilma; 3) ismdan so'ng duo mazmunidagi jumla kelsa, masalan, اللهم أمرى يسره – Alloh, ishimni oson qil; 4) ism so'roq yuklamasi hamzadan so'ng kelsa, masalan, (Qamar surasi, 24-oyat); 5) so'roq gapga nisbatan berilgan javob gap bo'lsa, masalan, “kimni hurmat qilding?” degan gapga javoban berilgan quyidagi gap: “علياً أكرمته” – Alini hurmat qildim.

Ushbu ismni quyidagi uch o'rinda bosh kelishikda keltirish shart bo'ladi: 1) “to'satdan” ma'nosini anglatuvchi اذا so'zidan so'ng kelsa, masalan, خرجت فاذا الجؤ

يملؤه الضباب – chiqdim. Qarasam havoni tuman qoplagan, ya'ni havoni tuman qoplaganini bilmagan holda chiqdim; 2) Hol ergash gap oldidan keluvchi “الواو” “vov” dan so'ng kelsa, masalan, جنّت و الفرس يركبه اخوك – Otni akang mingan holda keldim; 3) so'roq, inkor va shart yuklamalari, undashni ifodalovchi yuklamalar, gap boshida keluvchi “lom”, taajjubni ifodalovchi ما , ritorik so'roq gapni ifodalovchi كم olmoshi, egaga ta'sir qiluvchi yuklamalardan so'ng kelsa, masalan, زهير هل أكرمته؟ – Zuhayrni hurmat qildingmi?, سعيد فأكرمه – Saidni hurmat qil, خالد هلا دعوته – Xolidni taklif qilmadingmi, ya'ni uni taklif qilishing kerak, الشر ما فعلته – yomonlikni qilmadim, الخلق الحسن ما أطيبه! – Yaxshilikni albatta qilaman, الخير لأنا افعله – go'zal xulq qanday yaxshi, زهير كم أكرمته! – Zuhayrni qanchalar hurmat qildim! أسامة اني أحبه – Usomani albatta men yaxshi ko'raman. Mazkur holatlarning barchasida ism “mubtado”, ya'ni ismiy gapning egasi hisoblanadi. Chunki ushbu yuklamalardan keyin keladigan fe'l yuklamalardan oldingi ismga ta'sir qilmaydi.¹

Ishtig'ol borasida Mustafo G'alayiniydan keltirilgan fikrlar bilan ibn Molik² va Ibn Aqiyl³larning fikrlari o'rtasida qarama-qarshilik yo'q, balki ularning har birining bu boradagi fikrlari bir-birini quvvatlaydi. Shuningdek, “Sharhu ibn Aqiyl ala alfiyyati ibn Molik” asarini tahqiq qilgan Muhammad Muhyiddin Abdulhamid ishtig'ol qoidasining asosiy ruknlari uchta ekanligi aytib har bir ruknning shartlarini alohida-alohida keltirib o'tadi⁴.

٩-التَّنَازُعُ

التَّنَازُعُ أن يَتَوَجَّهَ عاملان مُتَقَدِّمان، أو أكثر، إلى معمول واحدٍ مُتَأَخِّرٍ أو أكثر، كقوله تعالى آتوني أفرغ عليه قطراً.

آتوا فعل أمر يتعدى الى مفعولين. ومفعوله الأول هو الياء، ضميرُ المتكلم. وهو يطلب "قطراً" ليكون مفعوله الثاني. و أفرغ فعل مضارع متعد الى مفعول واحد. وهو يطلب قطراً يكون ذلك المفعول. فأنت ترى

¹ الشيخ مصطفى غلاييني جامع الدروس العربية. مصر. 2007. ص. 405.

² Ibn Molik. Sharhu bn aqiyl a'la alfiyyati. 2-jild. – Qohira, 2005. – B. 99.

³ O'sha joyda.

⁴ Ibn Molik. Sharhu bn aqiyl a'la alfiyyati. 2-jild. – Qohira, 2005. – B. 99.

أَنَّ قَطْرًا قَدْ تَنَازَعَهُ عَامِلَانِ، كِلَاهُمَا يَطْلُبُهُ لِيَكُونَ مَفْعُولًا بِهِ لَهُ، لِأَنَّ التَّقْدِيرَ آتُونِي قَطْرًا أَفْرَغَهُ عَلَيْهِ. وَهَذَا هُوَ
مَعْنَى التَّنَازَعِ.

وَلَكَّ أَنْ تُعْمَلَ فِي الْأَسْمِ الْمَذْكُورِ أَيَّ الْعَامِلَيْنِ شُئْتُ. فَإِنْ أَعْمَلْتُ الثَّانِي فَلَقُرْبِهِ، وَإِنْ أَعْمَلْتُ الْأَوَّلَ فَلَسَبَقِهِ.

فَإِنْ أَعْمَلْتُ الْأَوَّلَ فِي الظَّاهِرِ أَعْمَلْتُ الثَّانِي فِي ضَمِيرِهِ، مَرْفُوعًا كَانَ أَمْ غَيْرَهُ، نَحْوُ:

"قَامَ، وَقَعَدَا، أَخَوَاكَ * اجْتَهِدْ، فَأَكْرَمْتُهُمَا، أَخَوَاكَ * وَقَفْتُ، فَسَلَّمْتُ عَلَيْهِمَا، أَخَوَاكَ * أَكْرَمْتُ، فَسَرَّأَ،

أَخَوَيْكَ * أَكْرَمْتُ، فَشَكَرَ لِي، خَالِدًا."

وَمِنْ النُّحَاةِ مَنْ أَجَازَ حَذْفَهُ، إِنْ كَانَ غَيْرَ ضَمِيرٍ رَفَعَ، لِأَنَّهُ فَضْلَةٌ، وَعَلَيْهِ قَوْلُ الشَّاعِرِ [مِنْ مَجْزُوءِ

الكامل]

بِحِكَاطٍ يُعْشَى النَّاطِرِ ... بَنَ، إِذَا هُمْ لَمَحُوا، شُعَاعُهُ

وَأَنْ أَعْمَلْتُ الثَّانِي فِي الظَّاهِرِ، أَعْمَلْتُ الْأَوَّلَ فِي ضَمِيرِهِ، إِنْ كَانَ مَرْفُوعًا نَحْوُ:

"قَامَا، وَقَعَدَا أَخَوَاكَ * اجْتَهِدَا، فَأَكْرَمْتُ أَخَوَيْكَ * وَقَفَا، فَسَلَّمْتُ عَلَى أَخَوَيْكَ."

وَمِنْهُ قَوْلُ الشَّاعِرِ [مِنْ الطَّوِيلِ]

جَفَوْنِي، وَلَمْ أَجِفْ إِلَّا خَلَاءً، إِنَّنِي ... لِيَغَيِّرَ جَمِيلٍ مِنْ خَلِيلِي مُهْمَلُ

وَإِنْ كَانَ ضَمِيرُهُ غَيْرَ مَرْفُوعٍ حَذَفْتُهُ، نَحْوُ

"أَكْرَمْتُ، فَسَرَّأَ أَخَوَاكَ * أَكْرَمْتُ، فَشَكَرَ لِي خَالِدٌ * أَكْرَمْتُ، وَأَكْرَمَنِي سَعِيدٌ * مَرَرْتُ، وَمَرَّ بِي عَلِيٌّ."

وَلَا يُقَالُ

أَكْرَمْتُهُمَا، فَسَرَّأَ أَخَوَاكَ * أَكْرَمْتُهُ، فَشَكَرَ لِي خَالِدٌ * أَكْرَمْتُهُ، وَأَكْرَمَنِي سَعِيدٌ * مَرَرْتُ بِهِ، وَمَرَّ بِي عَلِيٌّ.

وَأَمَّا قَوْلُ الشَّاعِرِ [مِنْ الطَّوِيلِ]

إِذَا كُنْتُ تُرْضِيهِ، وَيُرْضِيكَ صَاحِبٌ ... جِهَارًا، فَكُنْ فِي الْعَيْبِ أَحْفَظَ لِلْعَهْدِ

وَأَلْغِ أَحَادِيثَ الْوُشَاةِ، فَقَلِّمًا ... يُحَاوِلُ وَاشِ غَيْرَ هَجْرَانِ ذِي وَدٍّ

بإظهار الضمير المنصوب في "ثرضيه"، فضرورة لا يحسن ارتكابها عند الجمهور. وكان حقُّه ان يقول "إذا كنت تُرضي، ويُرضيك صاحبٌ". وأجازَ ذلك بعضُ مُحَقِّقِي النَّحاة.

(وذهب الكسائي ومن تابعه الى أنه اذا عملت الثاني في الظاهر، لم تُضمَر الفاعل في الاول بل يكون فاعله محذوفاً لدلالة ما بعده عليه (لانه يُجيز حذف الفاعل اذا دل عليه دليل . (فاذا قلت "اكرمني فسرني زهير"، فان جعلت زهيراً فاعلاً لسرّ، كان فاعل "أكرم") "على رأى سيبويه والجمهور (ضميراً مستتراً يعود اليه. وعلى رأى الكسائي ومن وافقه يكون فاعل "اكرم" محذوفاً لدلالة ما بعده عليه. ويظهر اثر الخلاف في التنبيه والجمع، فعلى رأى سيبويه يجب ان تقول (ان عملت الثاني" (اكرماني، فسرني صديقي. واکرموني، فسرني اصدقائي . "وتقول على مذهب الكسائي ومن تابعه "اكرمني، فسرني صديقي. واکرمني، فسرني اصدقائي . "فيكون الاسم الظاهر فاعلاً للثاني. ويكون فاعل الاول محذوفاً. وما قاله الكسائي ليس ببعيداً، لان العرب تستغني في كلامها عما يُعلم لو حُذف، ولو كان عمدة. ولهذا شواهدُ من كلامهم. اما لو عملت الاول في الاسم الظاهر، فيجب بالاتفاق الإضمار في الثاني، نحو "اكرمني، فسراني، صديقي، واکرمني، فسرّوني، اصدقائي".

Tanozu' – gapda bir yoki undan ortiq to'ldiruvchiga ikki omilning ma'noda to'qnash kelishi arab tilida "tanozu'" deyiladi. Masalan, (Kahf surasi, 96-oyat)⁵

Ibn Aqiyl aynan shu fikrlarni keltirish bilan birga yana ikkala omilning to'ldiruvchidan keyin kelsa "tanozu'" bo'lmasligini aytib o'tadi. Shuningdek, gapda kelayotgan to'ldiruvchining ikki omildan qaysi birining ta'sirida kelayotgani to'g'risida Basraliklar to'ldiruvchiga yaqinroq bo'lganligi uchun ikkinchi omil ta'sirida deyishlarini, Ko'faliklar esa avval kelganligi uchun birinchi omilning ta'sirida deyishlarini, ularning orasidagi ixtilof aynan shu ekanligini keltirib o'tadi.⁶

Mustafo G'alayiniy, Ibn Molik va Ibn Aqiyl kabi mashhur arab tilshunoslari ishtig'ol va tanozu' qoidalarini har xil tushuntirgan bo'lsa-da, ularning fikrlari o'zaro zid emas, balki bir-birini mukammallashtiradi. Muhammad Muhyiddin

⁵ الشيخ مصطفى غلاييني جامع الدروس العربية. مصر. 2007. ص. 405.

⁶ 2-jild . Sharhu bn aqiyl a'la alfiyyati ibn molik. Qohira. 2005. 125-bet

Abdulhamidning tahliliga ko'ra, ishtig'ol qoidasining asosiy uch rukni bor bo'lib, ularning har biriga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, ishtig'ol va tanozu' arab tili sintaksisidagi muhim grammatik fenomenlar bo'lib, ular tilning ma'no va strukturasiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Ularning tahlili tilshunoslik va adabiyotshunoslikdagi murakkab muammolarni yechishda muhim vosita hisoblanadi. Arab tilshunosligi maktablari o'rtasidagi fikriy farqlar tahlil qilinganda, bu fenomenlarning nazariy va amaliy ahamiyati yanada ravshanlashadi. Kelajakda ushbu mavzularni yanada kengroq tadqiq etish arab tilining sintaksisini yanada puxta o'rganishga xizmat qiladi.

References:

1. Носирова, М. (2005). Махмуд Замахшарийнинг «Ал Унмузаж фи н нахв» рисоласи. Т.: ToshDSHI
2. Nasirova M. (2004) O'rta asr nahvidan namunalar. T.: ToshDSHI
3. Rakhmatova, G. O. (2023). PRINCIPLES OF DIVISION OF SIMPLE SENTENCE TYPES IN ANCIENT TURKIC LANGUAGE. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 5(11), 94-98.
4. Sirojiddin SOTVOLDIEV. (2024). Lexical-Semantic And Functional Analysis Of Translations From The Arabic Press. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 39, 15–17.
5. العلامة ابن حمدون. كتاب حاشية العلامة ابن حمدون علي شرح المكودي لألفية ابن مالك. 1955 م. ص-147
6. الشيخ الهمام خالد بن عبد الله الأزهرى علي ألفية ابن مالك في النحو. القاهرة. 1954م. ص-323
7. أبو بكر مهدي بن سهل بن سراج. الأصول في النحو. 1996. بيروت. ص-159
8. ابن يعش موفّق الدين أبي البقاء يعش بن علي بن يعش الموصلي. كتاب شرح المفصل. بيروت. 2001. ص-272